



TALABALARDA IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Rasulova Nozigul Abduvoxid qizi

Andijon davlat pedagogika inistituti magistrant talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida aniqlashtirish, faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda bilimlarni sof individual o'zlashtirishni hisobga olish, o'qitishning sub'yektiv motivlari, o'qitish predmetiga munosabat, ta'lim oluvchining qobiliyatlari, shaxsiy sifatleri va tajribasiga bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish zarurati fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda individual yondashuvga murojaat etishni pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarbiya, pedagogik imkoniyat, fuqarolik ta'limi, siyosiy ta'lim, ijtimoiy faollik, islohot, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi,

Mustaqil davlatimizning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida ijtimoiy faol, barkomol yosh-avlodni tarbiyalash eng muhim muammo sifatida ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar masalasiga to'xtalar ekan: "mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda".[19]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 19 mart kuni ilgari surgan besh muhim tashabbuslari ham ijtimoiy faol talaba-yoshlarni tarbiyalashda ta'lim mussasasi o'rni va ahamiyati juda yuqori. Chunki, ushbu ilgari surilgan "beshta eng muhim tashabbusda yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash" kabi vazifalar mamlakat ertangi kuni uchun, yetuk, yoshlarni barkomol avlod bo'lib voyaga yetishlarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi.[17]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlar masalasiga to'xtalar ekan: "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovasiya bilan erishamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur" degan ushbu murojaati





mazmunida ham oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni ijtimoiy faol fuqaro sifatida kamol toptirish pedagoglar oldida turgan eng muhim muammodir.[18]

Sh.E.Qurbonov[4; 64-65-b], Sh.Majidova[10; 24-b.], Z.Soliyeva[15; 14-b.], B.Xodjayev[20; 82-b.]lar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yuksak intellektual, ijtimoiy faol, tashabbuskor, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan yosh-avlodni yetuk kadrlar etib tayyorlash muammosi to'g'risida izlanishlar olib borishgan.

A.Redjaboyev[13; 20-b.], D.Ro'ziyeva[14; 255-b.], M.Mamajonov[11], O.Jamoldinova[15; 51-b.], A.Isimova[7; 25-b.], S.Jo'rayeva [6], B.Shermuhammadov[21; 37-53-b.]lar yoshlarda sog'lom turmush madaniyati va vatanparvarlik, yoshlar faolligini oshirish va ularning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik qobiliyatlarini millat rivoji ruhida tarbiyalash kabi muammolarga to'xtalib o'tgan.

Xorijiy mamlakatlarda yoshlarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirish "Fuqarolik ta'limi" fani asosida singdirib boriladi. "Fuqarolik ta'limi" fani yoshlarda fuqarolik jamiyati, demokratik davlat qurish asoslari singdiriladi, chunki fuqaroning ijtimoiy roli – bu avvalo, demokratik jarayonlar va institutlarda ishtirok etishida namoyon bo'ladi.

Jumladan, Avstriyada "fuqarolik ta'limi" o'rniga ko'pincha "siyosiy ta'lim" atamasi qo'llaniladi. Frumin o'z tadqiqotlarida T.Kalsuonis[16; 92-b]ning "demokratik fuqarolik ta'limi" tushunchasidan foydalanishni taklif etganligi, chunki u o'z tadqiqot ishida "fuqaroning barcha qadriyatlari, ko'nikmalar va bilimlar to'g'risida emas, balki demokratik mexanizmlarni ishlab chiqish va rivojlantirish muhimligini nazarda tutadi".

Yuqoridagi barcha olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi pedagogik imkoniyatlarini jadval tarzida izohladik:





Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari :

mamlakatda demokratik jamiyat qurishda o'zini-o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirishda talabalar tashabbusi va faolli-

talabalarda huquqiy madaniyat va huquqiy ongni shakllantirish, faol fuqaro sifatida, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish-

o'quv-tarbiya jarayonida talabalarga demokratik qadriyatlarni singdirib borishish (inson qadri, jomardlik, yurt tinchligi, insonparvarlik,

talabalarda demokratik hayot tajribasi, fuqarolik bilimi, ko'nikmasi va malakasi orqali ijtimoiy-psixologik, faol fuqarolik sifatlarining rivojlanib

1.1.-rasm. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari

Chunki, talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish demokratik huquqiy davlat qurish sharti va jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, uning barqaror rivojlanishini bosqichma-bosqich oshib borishi sifatida qarash mumkin.

Mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim tizimida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, Kasb-hunar ta'limining Davlat Ta'lim Standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-son Qarorida «Tarix», «Davlat va huquq asoslari», «Konstitutsiyaviy huquq» «Umumiy pedagogika» fanlari orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini o'quvchi -talabalarda shakllantirish vazifasi ilgari surilgan bo'lsa, ushbu shakllangan kompetensiyani oliy ta'lim tizimida rivojlantirish muhim o'rin tutadi[1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi jamiyat o'zgarishlariga ta'lim-tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini ko'rsatmoqda.

“**Islohot** – bu yangilanish, o'zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi[2; 252-b.]”. Chunki, har qanday islohot zamirida yoshlarimiz faolligi, tashabbuskorligi va ularning ilmi-ijodiy g'oyalarini qo'llab quvvatlash ishlarini olib borilishi jamiyat ertangi kuni farovonligidan dalolat beradi. Shuning uchun, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish talabalarda adolat, huquqiy tenglik,






demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida eng muhim tashabbuskor omil hisoblanadi.

Ijtimoiy tarbiya – tarbiyaning muhim bir shakli, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko'rsatilgan maqsadga muvofiq ma'naviy ta'sirni ifoda etadigan tarbiya demak.

Ijtimoiy tarbiya shaxs ongi va tafakkuri, ma'naviy-ma'rifiy olamini jamiyatning maqsad va vazifalariga uyg'un hamda hamohang ravishda shakllantirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etish, ezgu ta'sir hamda omillar majmui. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi fuqarolarni insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurishga safarbar etish yagona umummilliy g'oya atrofida birlashtirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiyada ota-ona mehri, Vatan muhabbati, ustoz-shogirdlik an'analari, milliy qadriyatlar, mahalla va jamoati nazorati ham katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, yoshlar kamolatida muhim ahamiyat kasb etadi[9; 188-189-b].

Talabalar oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy hayotida, tashabbuskor va volontyorlik guruhlar, o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, "Iqtidorli yoshlar" fan klublari faoliyatida jumladan, talabalar, ota-onalar kengashlari faoliyatini rivojlantirish orqali "ta'lim muassasasi talabalari va ota-onalar" o'rtasida faol hamkorlik muhitini yaratish orqali ko'zlangan maqsadga yetish mumkin.



1.2-rasm. Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadlari

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish demokratik qadriyatlar va shaxsning alohida sifatlarini shakllantirish uchun xorijiy pedagoglar tomonidan ko'pgina darsdan tashqari amaliyotlardan foydalanib ko'rsatilgan: yosh avlod tarbiyasida demokratik institutlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari, me'yor va qoidalari ta'siri ostida ijtimoiylashgan va jamiyatning siyosiy sohasiga nisbatan qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligini ifodalovchi, shaxsning faoliyat ko'rsatkichi, fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy masalalari to'g'risida Yu.V.Podlesnayaning «Zamonaviy jamiyatda fuqarolik kompetentligi:





shakllantirishning siyosatshunoslik jihatlarini» mavzusidagi tadqiqot ishi ham alohida o'rin egallaydi[12].

Olim o'z tadqiqotida faol fuqarolik sifatlarini rivojlantirishda jamiyatning siyosiy hayotida sodir bo'layotgan voqea va hodislarni chuqur tahlil qilib o'tganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

S.Jo'rayeva yosh avlod masalasiga to'xtalar ekan: "Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o'zlarini mas'ul sezib, dahldorlik tuyg'usi"ni o'zida xis qilishi to'g'risida to'xtalgani, har qanday jamiyatda yosh-avlod tarbiyasi turli davlarda ham muhim o'rin egallaydi[6].

A.Begmatov ta'lim jarayonida shaxs faolligi "jamiyat manfaatlari bilan shaxs manfaatlari o'rtasida uyg'unlik mavjud bo'lsa, bunday holat shaxsni jamiyat manfaatlari yo'lida, demak, shu orqali, o'z manfaatlari yo'lida ham jonbozlik ko'rsatishga undaydi[3; 64-b.]" deb, inson tarbiyasida insonparvarlik tamoyilining o'rni yuqoriligi masalasiga to'xtalib o'tgan.

A.M.Knyazev"[8] shaxsning fuqaro bo'lib shakllanishining uchta bosqichini ajratib ko'rsatadi va "Fuqarolik ta'limi" fani natijasi sifatida fuqarolik kompetensiyasini baholash imkoniyatini asoslaydi: shaxsning fuqarolik huquq va majburiyatlarini hamda mamlakat tarixini bilishi; uning fuqaro sifatida o'ziga, fuqarolik jamiyatiga va davlatga, fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga munosabat tizimi; fuqarolik burchi va fuqaroning majburiyati, fuqarolik jamiyatida davlatning manfaatlariga, shaxsning fuqarolik xulqi; shaxsning fuqarolik qadriyatlarini va ishonchiga e'tibor qaratadi[8].

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida aniqlashtirish, bizningcha quyidagi fikr mulohazalarni ta'kidlab o'tish imkonini berdi:

- yosh avlodni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi –ijtimoiy faol fuqaroni kamol toptirish;
- talabalarga demokratik davlat qurish g'oyasini singdirib borish orqali jamiyat hayotning barcha sohalarida ijtimoiy faol ishtirokini ta'minlash;
- talabalarda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, xalq farovonligi, komil inson g'oyalarini singdirgan holda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirokini ta'minlash;
- talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish;
- talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlanishi "Mentorlik", "Talaba minbari" kabi ijtimoiy loyihalarda faollik ko'rsatish orqali oshirib borish;
- talabalarni oliy ta'lim muassasalaridagi, "Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish" orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Demak, shaxsning sub'yektiv sifati rivojlanishi ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda bilimlarni sof individual o'zlashtirishni hisobga olish, o'qitishning sub'yektiv motivlari, o'qitish predmetiga munosabat, ta'lim





oluvchining qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari va tajribasiga bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish zarurati fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda individual yondashuvga murojaat etishni talab etadi.

Xulosa o'rnida shuni hech ikilanmay aytishimiz mumkinki talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish eng avvalo shaxsning o'zini anglab yetgan holda jamiyatni barcha jabhalarida faol va intizomli munosabatlari orqali ishtirokining uzluksiz olib borishi tufayli sayqalanib boradi. Natijada mamlakatining har bir talaba-yoshlarida mustaqil diyorumiz taqdiriga befarq qaramaslik kabi mas'uliyat, daxldorlik xislatlari uyg'unlashib, ertangi kun uchun o'zining har bir hatti harakatini o'rni beqiyos ekanligini anglab yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi « Umumiy o'rta va o'rta maxsus, Kasb-hunar ta'limining Davlat Ta'lim Standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-son Qarori
2. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz".-Toshkent: O'zbekiston, 2018.-252 b.
3. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. - Toshkent.: Sharq, 2000 y. - 64-65 b.
4. Barkamol avlod orzusi// Tuzuvchilar: Sh.E.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. To'ldirilgan 2-nashri. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. - 248 b.
5. Jamoliddinova O. "Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish": Avtor.. dis.. p.f.d. - T., 2015 yil. - 51 b.
6. Jo'rayeva S.N. "Talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta'sirining psixologik jihatlari": Avtoreferat. Dis...ped.fan.nom. - T., 2010 y.
7. Isimova A. "Darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari" (5-9 sinflar misolida): Avtoref. dis. ... ped. fan. nom. - T.: 2004. - 25 b.
8. Князев А. Гражданственность как слагаемое социально-политической компетентности личности. Проблемы качества образования. - М.-Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.: 2003 г.
9. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati". O'zbekiston faylasuflari jamiyati.: T-2010 y. 188-b.
10. Мажидова Ш. Педагогические основы целостного развития личности будущего учителя в процессе профессиональной подготовки.: Автореф. дис. к.п.н. - Т.: 2004. - 24 с.
11. Мамажонов М. "Milliy an'analar - o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish omili" Uzluksiz ta'lim. - Toshkent, 2007. -№ 5.





12. Петренко Е. Градосельская Г.В. “Гражданское общество” [Электронный ресурс] - Режим доступа URL: http://www.ng.ru/scenario/2008-07-22/1_society.html. 15.02.2010.

13. Raximov B. “Talaba-yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari”: dis...p.f.d.- T, 2007. – 88-92 b.

14. Розин В. Предмет и статус философии образования // Философия образования.: сб. научных статей. // от.р. А.Н Кочергин. - М.: 1996. - С. 7 – 21

15. Слабунова Э. “Компетентностный подход в гражданском образовании” [Электронный ресурс] - Режим доступа URL: <http://www.vy-narod.ru/SLAB.DOC> д.об. 15.02.2010 г.

16. Фельдштейн Д.И. Психология развивающейся личности: избр. психол. Труды / Д.И. Фельдштейн. - М.: Флинта, 1996. - 512с.

17. Фрумин И.Д. За что в ответе? Компетентностный подход как естественный этап обновления содержания образования. И.Д.Фрумин // Учительская газета. - 2002. - № 36. - С. 38-39.

18. Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 19 мартдаги “Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича муҳим вазифалар” нутқи. 2020 й. 20 март

19. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 30 dekabr №-255 son

20. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 23 sentyabrdagi BMT 75 sessiyasidagi nulqi. 2017 y. 24 sentyabr soni

21. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti.: Avtoref. dis.. p.f.d. – T., 2012. – 46 b.

